



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA’LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

61010100 – Turizm va mehmondo’stlik
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010100 – Turizm va mehmondo'stlik

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MANSUROVA NARGIZA SHAMSIDINOVNA

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

fan doktori (DSc), professor



A'zo: AKHMEDOV ARMIG'ON

Dong-Eui University

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260019
Xulosa raqami	979
Xulosa sanasi	19.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy. Guvohnoma: MAS № 0000322, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Turizm va mehmondo'stlik
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000322, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010100 – Turizm va mehmondo'stlik
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010100 – Tourism and Hospitality
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010100 – Туризм и гостеприимство
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	180 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	3 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Turizm iqtisodchi-texnologi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturini tashkil etish, boshqarish hamda sifatni ichki ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi yangi ochilishi rejalashtirilgani sababli baholash jarayonida amaldagi faoliyat natijalari bilan bir qatorda dasturni joriy etishga tayyorgarlik darajasi, tasdiqlangan ichki tartiblar, rejalashtirish mexanizmlari, mas'ul ijrochilar hamda mavjud moddiy-texnik va tashkiliy resurslar kompleks baholandi. Taqdim etilgan ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli reja, mas'ul tarkibiy tuzilma nizomi hamda ichki sifat monitoringiga oid hujjatlar ta'lim dasturining maqsad va vazifalarini izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan. Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam o'rganish hamda ish beruvchilar bilan samarali hamkorlik mexanizmlarining yo'lga qo'yilgani ta'lim dasturi mazmunining zamonaviy talablar va xizmatlar bozori ehtiyojlariga mosligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari, kasbiy kompetensiyalari, kvalifikatsiyasi, o'quv yuklamasi hamda tarkibiy qismlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va malaka talablari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Baholash jarayonida malaka

talablari, ishchi o'quv reja, fan dasturlari, sillabuslar, o'quv yuklamalarining taqsimoti, xorijiy ekspertlarning xulosalari, ish beruvchilar bilan tuzilgan kelishuvlar hamda ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlashga oid ichki me'yoriy hujjatlar asos sifatida o'rganildi. Xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va ish beruvchilarning takliflari ta'lim dasturi mazmunini shakllantirish jarayonida inobatga olingani turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida ta'lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlari hamda zamonaviy xizmatlar sohasi talablari bilan uyg'unligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Ta'lim dasturining 180 kredit hajmida va 3 yillik o'qish muddati asosida tashkil etilgani amaldagi normativ talablarga muvofiq asoslangan. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv jarayoni, o'quv rejalari va fan sillabuslari, amaliyot, baholash tizimi, murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish hamda akademik halollikni ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy va me'yoriy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Taqdim etilgan malaka talablari, ishchi o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar asosida ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda kasbiy kompetensiyalari o'quv jarayonining mazmuni bilan uzviy bog'langani tasdiqlandi. Ishchi o'quv rejada fanlar tarkibi, kreditlar taqsimoti va o'quv yuklamalari amaldagi normativ talablar asosida shakllantirilgan. Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishining masofaviy ta'lim shaklida amaliyot komponentini samarali tashkil etish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini bevosita xizmat ko'rsatish muhitida shakllantirish hamda amaliyot bazalari bilan uzviy hamkorlikni ta'minlash ta'lim natijalariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash hamda ularga maslahat berish tizimi shakllantirilgani aniqlandi. Taqdim etilgan hujjatlarga ko'ra, talabalarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish faoliyatini

tartibga soluvchi ichki reglament tasdiqlangan bo'lib, uning asosida tegishli tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan. Registrator ofisi, tyutorlik xizmati, psixologik xizmat, Karyera markazi, Axborot-resurs markazi, moddiy yordam ko'rsatish mexanizmlari hamda so'rovnomalar orqali talabalar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish tizimi yo'lga qo'yilgan. Masofaviy ta'lim shaklida Registrator ofisi va tyutorlik xizmatining uzluksiz faoliyat yuritishi talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini samarali boshqarish va ularning akademik muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Karyera markazi faoliyati turizm va mehmondo'stlik sohasida bitiruvchilarning bandligini ta'minlash hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur kadrlar salohiyatini shakllantirish, professor-o'qituvchilar tarkibini rejalashtirish, yangi pedagog kadrlarni jalb etish hamda ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha asosiy tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi yangi ochilishi rejalashtirilgani sababli baholash jarayonida amalda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi bilan bir qatorda 2026–2027-o'quv yili uchun ishlab chiqilgan professor-o'qituvchilarni jalb etish rejasi, ularning ilmiy darajasi, malakasi va kasbiy tajribasiga oid ma'lumotlar ham tahlil qilindi. Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida professor-o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligi bilan bir qatorda turizm industriyasi va mehmondo'stlik sohasidagi amaliy tajribaga ega bo'lishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan amaliyotchi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga kengroq jalb etish ta'lim dasturining amaliy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi qayd etildi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va suhbat jarayonida olingan qo'shimcha ma'lumotlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010100 – Turizm va

mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-uslubiy, me'yoriy, kadrlar, moddiy-texnik va moliyaviy asoslar shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim tashkilotida ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli reja, mas'ul tarkibiy tuzilma nizomi, malaka talablari, o'quv rejalari, fan (modul) dasturlari, ekspert xulosalari, qabul jarayonlarini tashkil etish hamda ichki sifat monitoringiga oid hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim dasturining maqsad va vazifalarini izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan. Masofaviy ta'lim shaklida amalga oshiriladigan turizm va mehmondo'stlik ta'lim dasturi uchun raqamli ta'lim platformasining barqaror ishlashi, elektron o'quv resurslari, virtual amaliy materiallar hamda interaktiv o'quv kontentining mavjudligi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mazkur resurslarni ta'lim yo'nalishining xususiyatidan kelib chiqib muntazam boyitish va takomillashtirib borish maqsadga muvofiq deb topildi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Yangi ochilayotgan yo'nalish bo'lgani sababli professor-o'qituvchilar tarkibini rejaga muvofiq to'liq shakllantirish talab etiladi.
- ✓ Masofaviy shaklda amaliyot komponentini tashkil etish va uni hujjatlashtirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Raqamli ta'lim platformasi, elektron o'quv resurslari va virtual amaliy materiallar bazasini boyitish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ 2026–2027-o'quv yili uchun professor-o'qituvchilarni jalb qilish rejasini izchil amalga oshirish.
- ✓ Turizm va mehmondo'stlik sohasi amaliyotchi mutaxassislarini dars jarayoniga jalb etish.
- ✓ Masofaviy shaklda amaliyot va real xizmat muhiti bilan bog'liqlikni ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish.
- ✓ Raqamli ta'lim resurslari va virtual amaliy materiallar bazasini kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida yangi ochilishi rejalashtirilgan 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini tashkil etish, boshqarish va sifatni ichki ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgani, ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli reja hamda ichki sifat monitoringi mexanizmlari ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari, kasbiy kompetensiyalari va kvalifikatsiyasi malaka talablari, ishchi o'quv reja, fan dasturlari, xorijiy ekspertlarning xulosalari hamda ish beruvchilar bilan tuzilgan kelishuvlar asosida shakllantirilgan bo'lib, dastur 180 kredit hajmida va 3 yillik o'qish muddati asosida tashkil etilgan. O'quv jarayoni, baholash tizimi, akademik halollik tamoyillari va amaliyotlarni tashkil etish bo'yicha zarur me'yoriy hamda tashkiliy mexanizmlar yaratilgan. Talabalarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Registrator ofisi, tyutorlik xizmati, psixologik xizmat, Karyera markazi, Axborot-resurs markazi hamda talabalar fikr-mulohazalarini o'rganish tizimi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturi yangi ochilishi rejalashtirilgani sababli professor-o'qituvchilarni jalb etish rejasi, ularning malakasi va kasbiy salohiyatini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan hamda dasturni amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va moliyaviy baza shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 61010100 – Turizm va mehmondo'stlik (masofaviy) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

